


# NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha  
2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

3

21 016




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 165



Oilaviy korxonona

126



Unitar korxonona

6 335



Xususiy korxonona

21



Aksiyadorlik jamiyati


435



Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-dekabr oylarida)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 1 214 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 212 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 165 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 197 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 343 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 166 taga yoki 32,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 21 697 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 355 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 016 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 080 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 412 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 778 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 292 tani tashkil etib, ulardan 284 tasi yoki 97,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 36 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	50	38	12
Qozog'iston Respublikasi	17	9	7
Xitoy Xalq Respublikasi	54	29	25
Qirg'iz Respublikasi	13	11	2
Tojikiston Respublikasi	10	8	2
Turkiya Respublikasi	40	15	25
Hindiston Respublikasi	16	8	8
Janubiy Koreya Respublikasi	31	23	8
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	284	176	108
Namangan shahri	89	52	37
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	28	20	8
Namangan	18	16	2
Norin	12	7	5
Pop	27	17	10
To'raqo'rg'on	14	8	6
Uychi	20	17	3
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	26	15	11
Chust	20	10	10
Yangiqo'rg'on	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 89 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,3 %), Kosonsoy 28 ta (9,9 %) Pop 27 ta (9,5 %), Chortoq 26 ta (9,2 %), Chust va Uychi 20 tadan (7,0 % dan) hamda Namangan 18 ta (6,4 %) dan tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (32,8 %), Chust (7,9 %), Namangan (6,9 %), Uychi (6,7 %), Pop (6,4 %), To'raqo'rg'on (6,3 %), Kosonsoy (6,2%), Uchqo'rg'on (6,1 %), Chortoq (5,9 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %), Norin (5,0 %) hamda Mingbuloq (4,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (27,9 %), Chust (8,2 %), To'raqo'rg'on (7,3 %), Uychi (7,0 %), Uchqo'rg'on va Namangan (6,8 % dan), Chortoq (6,6 %), Pop (6,2 %), Kosonsoy (6,0 %) Norin (5,9 %), Mingbuloq (5,7 %) hamda Yangiqo'rg'on (5,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,2 %), Uychi (7,4 %), Pop va Chortoq (6,7 % dan ), Namangan (6,5 %), Kosonsoy (6,4 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chust va Yangiqo'rg'on (5,3 % dan), Norin (5,2 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,8 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2021- yilning yanvar-dekabr oyida, birlikda)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda To'raqo'rg'on (26,0 %), Yangiqo'rg'on (17,5 %), Chortoq (14,3%), Namangan shahri (12,2 %), Namangan (10,2 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chust (5,3 %), Kosonsoy (2,9 %), Uychi (2,3 %), Mingbuloq (2,0 %), Norin va Pop (0,9 % dan) tumanlari hissasiga tegishli.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-dekabr oyida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.